

UO'K(UDC, УДК): 81-26

INGLIZ TILIDAGI QISQARTMALARNING ETNOLINGVOKULTUROLOGIK JIHATLARI⁹

Ibragimova Gulchexra Madaminjanovna

Qo'qon universiteti Andijon filiali,

Ingliz filologiyasi kafedrası dotsenti,

filologiya fanlari falsafa doktori (PhD)

E-mail: ibragimovaqul42@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada ingliz tilidagi qisqartmalarining etnomadaniy jihatdan a) milliy siyosiy model, b) diniy va axloqiy qadriyatlar, d) milliy qadriyatlar va turmush tarzi, e) professional identitet va ijtimoiy maqomni aks ettirishi masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz tilidagi qisqartmalarning etnolingvokulturologik xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Muammo sifatida esa ingliz tilida abbreviaturalarning sohalarida keng qo'llanilishi, ularning etnomadaniy va etnolingvistik jihati muhokama qilinadi. Metodologik asos sifatida madaniy, lingvistik tavsiflash yondashuvlar qo'llaniladi. Madaniy tahlil uchun I. Darvishovning "Etnolingvistika" nomli o'quv qo'llanmasi, G. A. Botirbekova, S. B. Sharipovalarning "Tilshunoslikda etnolingvistika va lingvokulturologiya" nomli maqolasi, M. Z. Solijonovning "Ingliz va o'zbek tillaridagi rivoyatlar konseptual maydonining lingvokulturologik tadqiqi" nomli tadqiqoti tanlangan. Tahlil natijasida aniqlanishicha, ingliz tilidagi qisqartmalar nafaqat lingvistik birliklar, balki madaniyat, jamiyat va texnologiyaning o'zaro ta'siri mahsulidir. Ular orqali insonlar o'z fikrlarini qisqa, ravon va zamonaviy shaklda yetkazadilar. Xulosa o'rnida, qisqartmalarni o'rganish tilshunoslik bilan birga madaniyatshunoslik, dinshunoslik va sotsiologiya fanlari uchun dolzarbdir.

KALIT SO'ZLAR

Qisqartma, abbreviatura, etnolingvistika, etnomadaniyat, etnik omillar, milliy-madaniy, madaniy konnotatsiya, etnografiya, semantik va stilistik yuklama, kod, axloqiy qadriyat, professional identitet, ijtimoiy maqom.

Received: August 20, 2025

Accepted: September 8, 2025

Available online:
November 16, 2025

⁹ For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Ibragimova M. Ingliz tilidagi qisqartmalarning etnolingvokulturologik jihatlari. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 4(8) — B. 118-128.

ETHNOLINGUOCULTURAL ASPECTS OF ABBREVIATIONS IN ENGLISH

Ibragimova Gulchekhra Madaminjanovna

Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences,

Andijan branch of Kokand University,

Associate Professor of the

Department of English Philology

E-mail: ibragimovagul42@gmail.com

ABSTRACT	KEY WORDS
The article analyzes the ethnocultural aspects of English abbreviations reflecting: a) national political models, b) religious and moral values, c) national values and lifestyle, d) professional identity and social status. The main objective of the research is to reveal the ethnolinguocultural characteristics of abbreviations in the English language. The problem addressed is the widespread use of abbreviations in various fields of English and their ethnocultural and ethnolinguistic aspects. Cultural and linguistic descriptive approaches are employed as the methodological basis. For cultural analysis, I. Darvishov's textbook "Ethnolinguistics," G. A. Botirbekova and S. B. Sharipova's article "Ethnolinguistics and Linguoculturology in Linguistics," and M. Z. Solijonov's research "Linguocultural Study of the Conceptual Field of Narratives in English and Uzbek Languages" were selected. The analysis reveals that abbreviations in English are not only linguistic units but also products of the interaction between culture, society, and technology. Through them, people convey their thoughts in a concise, fluent, and modern form. In conclusion, the study of abbreviations is relevant not only for linguistics but also for cultural studies, religious studies, and sociology.	Shortening, abbreviation, ethnolinguistics, ethnoculture, ethnic factors, national-cultural, cultural connotation, ethnography, semantic and stylistic load, code, moral value, professional identity, social status.

ЭТНОЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ АББРЕВИАТУР В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Ибрагимова Гулчехра Мадаминджановна
доктор философии (PhD) по филологическим наукам,
доцент кафедры английской филологии,
Андижанский филиал Кокандского университета
E-mail: ibragimovagul42@gmail.com

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
В статье анализируются этнокультурные аспекты сокращений в английском языке с точки зрения отражения в них: а) национальной политической модели; б) религиозных и нравственных ценностей; в) национальных ценностей и образа жизни; г) профессиональной идентичности и социального статуса. Основная цель исследования - выявить этнолингвокультурологические особенности сокращений в английском языке. Внимание автора статьи сосредоточено на проблемах, связанных с широким использованием аббревиатур в различных сферах английского языка, а также их этнокультурной и этнолингвистической спецификой. Методологической основой в работе служат культурологический и лингвоописательный подходы. Для культурологического анализа были использованы учебное пособие И. Дарвишова «Этнолингвистика», статья Г.А. Ботирбековой и С.Б. Шариповой «Этнолингвистика и лингвокультурология в языкознании», исследование М. З. Солижонова «Лингвокультурологическое исследование концептуального поля преданий в английском и узбекском языках». В результате анализа было выявлено, что аббревиатуры в английском языке являются не только лингвистическими единицами, но и выступают результатом взаимодействия культуры, общества и технологий. С их помощью люди выражают свои мысли кратко, ясно и в современной форме. В заключение отмечается, что изучение сокращений актуально как для лингвистики, так и для культурологии, религиоведения и социологии.	Сокращение, аббревиация, этнолингвистика, этнокультура, этнические факторы, национально культурный, культурная коннотация, этнография, семантико-стилистическая нагрузка, код, моральная ценность, профессиональная идентичность, социальный статус.

KIRISH

Har qanday tilda, shu o'rinda ingliz tilida soha abbreviaturalari tilning ijtimoiy, siyosiy va madaniy xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Har bir xalq o'zining lingvistik tafakkuri, madaniyati va tarixiy taraqqiyotiga ko'ra abbreviaturalar yaratadi va foydalanadi. Bu qisqartmalar tilshunoslikning etnolingvistik jihatlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Tilshunoslikda etnolingvistik tilshunoslar tomonidan turlicha talqin etiladi. Jumladan, A. Hojiyevning "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati"da makrolingvistikaning til bilan xalq o'rtasidagi munosabatlarini, tilning faoliyati va taraqqiyotida lingvistik va etnik faktorlarning o'zaro ta'sirini o'rganuvchi bo'lim deya izohlanadi (Хожиев А., 1985, 114).

O. S. Axmanovanning "Словарь лингвистических терминов" lug'atida ham xuddi shunday tavsiflanadi: "Makrolingvistikaning til va odamlar o'rtasidagi munosabatni, tilning faoliyati va rivojlanishidagi lingvistik va etnik omillarning o'zaro ta'sirini o'rganuvchi bo'limi" (Раздел макролингвистики, изучающий отношения между языком и народом и взаимодействие лингвистических и этнических факторов в функционировании и развитии языка) (Ахманова О. С., 1966, 529).

Etnolingvistika – til va madaniyatning o'zaro munosabatini, uning shakllanishi va rivojlanishini o'zida aks ettirgan hodisalar – til-madaniyatni birgalikda o'rganuvchi alohida ilmiy soha sanaladi.

Etnolingvistika madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o'rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo'lib, til va madaniyatning o'zaro ta'siri va bog'liqligi, bu bog'liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Bir tomondan etnolingvistika insoniyatning madaniy til omillaridagi o'rni, ikkinchi tomondan esa, til omillaridagi insonning o'rnini o'rganadi (Darvishov I., 2023, 3-4).

Etnolingvistika o'rganish obyektiga ko'ra madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlariga birmuncha yaqin, biroq mazmun-mohiyati, o'rganish obyektiga bo'lgan

yondashuviga ko‘ra farqli deb aytish mumkin. Uning chegaralanuvchi maqomi shundan iboratki, u xalq madaniyatining tilda namoyon bo‘lishi hamda ifodalanishi, til mentaliteti, milliyligi, til ruhiyati bilan bog‘liq ravishda nutqiy muloqotni tashkil etishdagi milliy-madaniy spetsifik qoidalarni o‘rganadi hamda millat madaniyatining tilda aks etgan o‘ziga xos milliy til xususiyatlarini aniqlash, tadqiq etish bilan shug‘ullanadi. Ma’lumki, madaniyat tushunchalar sistemasi, muayyan xalqning hayot obrazi, milliy xarakter, milliy mentalitet sifatida keng etnografik mazmun kasb etadi. N. S. Trubetskoyning yozishicha: “Madaniy konnotatsiyalarsiz biror so‘z bo‘lishi mumkin emas, ya’ni qiyosda, solishtirishda qandaydir umumiy qismlar bo‘lishi shart” (Трубецкой С., 1960, 819). Til va madaniyatning ana shunday o‘zaro yaqinligi va aloqadorligi ularni yagona metodologik asosda o‘rganish imkonini berdi. Ya’ni, til va madaniyat (Darvishov I. 2023, 4).

Etnolingvistikaga tadqiqotchilar turlicha yondoshadilar. Jumladan, G. A. Botirbekova, S. B. Sharipovalar “Etnolingvistika tor va maxsus ma’noda tilshunoslikning til va etnos, til va madaniyat, til va xalq mentaliteti, til va mifologiya va hokazo muammolarni qo‘yadigan va hal qiladigan bo‘lim hisoblanadi. Lingvistikaning bu bo‘limi uchun xalq madaniyati, psixologiyasi va mifologik tasavvurining tildagi aksini (inson faoliyatining barchatomonlari, shu jumladan, moddiy ishlab chiqarish va foydalanish uchun xos bo‘lgan), tilning konstruktiv roli va uning xalq madaniyati, xalq psixologiyasi hamda xalq ijodiyoti shakllanishi va funksiyalashuviga ta’sirini ko‘rib chiqish xosdir” (Ботирбекова Г.А., Шарипова С. Б., 2023, 18), - deydi.

Madaniyatni til orqali tadqiq etishning nazariy asoslari shuni ko‘rsatadiki, inson va dunyo haqida eng katta, salmoqli ma’lumot saqllovchi va tashuvchi til hisoblanadi. Xar bir xalqning tabiati, turmush sharoiti, urf-odatlar, madaniyati va san’ati tilda aks etadi. Shunga ko‘ra, til orqali madaniyatni o‘rganish g‘oyasi yangilik emas, bu haqida dastlab A. Bryukner, V. V. Ivanov, V. N. Toporov, N. I. Tolstoy va boshqalar nazariy qarashlarini bayon qilganlar (Солижонов М. З., 2021, 12).

Rus etnolingvisti Ye. Bartminskiy o‘tgan asr boshida ushbu muammoni hal

qilishda ishtirok etdi. Ularning asarlarida madaniyat tilshunoslikka yaqin fan ekani, insoniyat taraqqiyoti tarixida vujudga kelgan turli madaniyatlarning o'zaro ta'siri va bir-birini boyitishi masalalarini chuqur tahlil qilmay, matn hamda til sirlarini tushunib bo'lmashligi e'tirof etiladi (Маслова В. А., 2001, 28).

Etnomadaniyat etnografiya fanining o'rganish obyekti sanaladi. Etnografiya fan tarzda paydo bo'libdiki, to hozirgi kunga qadar xalq va xalqlarning madaniy o'ziga xosligi uning asosiy tadqiqot obyekti bo'lgan. Yanada kengroq tushuntirilsa mazkur fan turli xalqlarning etnogenezi va etnik tarixi, ular ishtirokidagi an'anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar, moddiy va ma'naviy madaniyat muammolari hamda etnoslararo jarayonlar ushbu doirasida tadqiq qilinadi (Аширов А., Ш.Атаджанов. 2007, 23, 31). Boshqacha aytganda, etnografiya - turli etnik guruhlarining shakllanish va rivojlanish jarayonini, ulardagi etnik o'zlikni anglash, madaniy boshqaruv shakllarini hamda jamoaviy munosabatlar qonuniyatlarini, shaxslararo aloqalarini hamda ijtimoiy muhitni o'rganuvchi fandır.

Har bir millat madaniyatini uning urf-odat, an'ana va qadriyatlaridan ajratgan holda tassavvur etib bo'lmaydi. Etnografik leksika nomi ostida birlashgan etnografizmlarni o'rganish milliy urf-odat va qadriyatlarni tadqiq etishda ahamiyatli. Urf-odatlar muayyan etnosning o'ziga xosliklarini namoyon etadi, butun etnografik sistemada lisoniy belgi sifatida faol o'ringa ega, shu jihati bilan tilshunoslik uchun muhim. Har bir til leksik makrosistemasida alohida bir mikrosistemani tashkil etuvchi, etnografik tushunchani ifodalovchi leksemalar tizimi mavjud. Ushbu leksemalarni o'rganish uchun tilshunoslikning maxsus sohasi etnolingvistika shakllangan, u lingvistik soha sifatida lingvistik universalialarni ham, xususiy jihatlarni ham o'rganadi. Shuning uchun umumiy va xususiy etnolingvistika farqlanadi. Umumiy etnolingvistika etnografik til hodisalarining paydo bo'lishi, rivojlanishi kabi umumiy masalalar bilan shug'ullansa, xususiy etnolingvistika ayrim tillarga xos etnografizmlarni shu nuqtai nazardan tadqiq qiladi. Tilshunoslikda etnografik tahlil uchun aksar hollarda xalq urf-odatlari, an'analari tegishli tushuncha nomlari obyekt sifatida olinadi (Омонбоева Д. Н., Мирзаева Д. И. 2023, 63).

Til nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning tafakkuri, dunyoqarashi va madaniyatining aksidir. Xususan, qisqartmalar (abbreviaturalar) zamonaviy jamiyat tilining ajralmas qismiga aylangan til birliklaridir. Ingliz tilida abbreviaturalar kundalik hayotda, ommaviy axborot vositalarida, texnologiyada, siyosatda, hatto san'at va moda sohalarida keng qo'llaniladi.

Ingliz tilidagi abbreviaturalar quyidagi asosiy turlarga bo'linadi:

1. Acronym (akronimlar): so'z sifatida o'qiladigan qisqartmalar (masalan, NASA – National Aeronautics and Space Administration).
2. Initialism (abbreviatiralar): harflab o'qiladigan qisqartmalar (masalan, FBI – Federal Bureau of Investigation).
3. Clipped forms (so'z qisqartmalari): qisqa variantlar (masalan, doc – document).
4. Blended forms: so'z birikmalarining aralashmalaridan tashkil topgan qisqartmalar (masalan, brunch – breakfast + lunch).

Har bir turi o'ziga xos semantic va stilistik yuklamaga ega.

Ingliz tilidagi abbreviaturalar quyidagi lingvomadaniy xususiyatlarga ega:

1. Ijtimoiy identifikatsiya vositasi:

Ko'plab qisqartmalardan ma'lum ijtimoiy guruhlar foydalanadi. Masalan, IT sohasi mutaxassislari tomonidan ishlatiladigan qisqartmalar: HTML, CSS, API kabi atamalar o'sha sohaning "kod"iga aylanadi.

2. Madaniy stereotiplar va asosiy qadriyatlar:

Abbreviaturalar orqali milliy qadriyatlar va madaniy yo'nalishlar ham aks etadi. Masalan, YOLO (You Only Live Once) g'arb madaniyatidagi individualism va hayotdan zavqlanish g'oyasini aks ettiradi. Bunday qisqartmalar ijtimoiy media orqali ommalashgan.

3. Globalizatsiya va lingvomadaniy eksport:

Ingliz abbreviaturalari butun dunyo bo'ylab boshqa tillarga ham o'tmoqda: SMS, OK, VIP kabi qisqartmalar o'zbek tilida ham faol ishlatilmoqda. Bu esa ingliz tilining lingvomadaniy ta'sirining kuchayganini ko'rsatadi.

4. Abbreviaturalarning ommaviy axborot va reklamada roli:

Reklama, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida abbreviaturalar tezkorlik, zamonaviylik va ixchamlik timsoliga aylangan. Masalan, ASAP (As Soon As Possible), OMG (Oh My God), DIY (Do It Yourself) kabi qisqartmalar nafaqat axborot berish, balki muayyan hissiy holatni yetkazishda ham muhim rol o'ynaydi.

5. Qisqartmalar va til o'zgarishlari:

Ingliz tilida abbreviaturalarning ortib borishi tilning soddalashuvi va dinamikasiga ishora qiladi. Bunday qisqartmalar ko'pincha yangi texnologiyalar, internet madaniyati va yoshlar tili bilan bog'liq. Masalan, BTW (By The Way), TMI (Too Much Information), FOMO (Fear of Missing Out) kabilar zamonaviy madaniyatning til ifodasidir.

Ingliz abbreviaturalari faqat lingvistik birliklar emas, balki madaniyat, jamiyat va texnologiyaning o'zaro ta'siri mahsulidir. Ular orqali insonlar o'z fikrlarini qisqa, ravon va zamonaviy shaklda yetkazadilar. Abbreviaturalarning keng tarqalishi ingliz tilining global o'rni va madaniy ta'sirining yorqin dalilidir. Shu sababli, ularni lingvistik tahlil bilan bir qatorda madaniy va ijtimoiy kontekstdan kelib chiqib o'rganish muhimdir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, inson tili nafaqat muloqot quroli, balki xalqning tarixiy, madaniy va ijtimoiy tajribasini aks ettiruvchi vosita ham sanaladi. Ayniqsa, **soha qisqartmalari** (abbreviations) ma'lum etnos madaniyatining o'ziga xos jihatlarini, qadriyatlarini, dunyoqarashini ixcham holda ifodalaydi. Ingliz tilida qo'llaniluvchi qisqartmalarni tahlil qilish orqali inglizcha so'zlashuvchi jamiyatlarning **etnomadaniy tafakkuri** haqida chuqurroq ma'lumot olish mumkin.

1. Etnomadaniyat va qisqartmalar:

Etnomadaniyat ma'lum etnosga xos bo'lgan qadriyatlar tizimi, ijtimoiy munosabatlar, urf-odatlar, mentalitet va bu elementlarning til orqali ifodalanishidir.

Soha qisqartmalari bu jihatdan konsentratsiyalashgan madaniy birliklar bo'lib, etnosning jamiyat tuzilmasi, kasbiy tizimi va tarixiy taraqqiyotini bildiradi.

2. Soha qisqartmalarining etnomadaniy jihatlar:

a) milliy siyosiy modelni aks ettirish:

CIA, NSA – AQSh da xavfsizlik va nazorat tizimining kuchliligini ifodalaydi.

HMRC (His Majesty's Revenue and Customs) abbreviaturasi Buyuk Britaniyadagi monarxiya asosidagi tuzilma va ijtimoiy qatlamlar mavjudligini ko'rsatadi.

Bu qisqartmalar etnoslarning davlat tuzilmasi va siyosiy mentalitetiga oid ma'lumotni o'zida jamlagan.

b) diniy va axloqiy qadriyatlar:

OMG (Oh My God) – diniy emotsional ifoda, nasroniy madaniyatning kuchli ta'siri.

LORD – YHWHning tarjimasi sifatida, Yahudiylar Xudoning ismini talaffuz qilmay, "LORD" deb o'qiydilar.

RIP (Rest In Peace) – xristian dafn marosimlari bilan bog'liq ifoda.

NSFW (Not Safe For Work) – axloqiy chegaralarni bildiruvchi internet abbreviaturasi.

Bular orqali jamiyatda diniy asoslar, axloqiy nazorat va ijtimoiy ruxsatsizliklar qay darajada muhim ekani bilinadi.

d) milliy qadriyatlar va turmush tarzi:

DIY (Do It Yourself) – individualism va mustaqil ishlash g'oyasi.

ASAP (As Soon As Possible) – tezlik va vaqtni qadrlash.

ETA (Estimated Time of Arrival) – rejalilik va aniqlikka urg'u.

Bu qisqartmalar ingliz tilida so'zlashuvchi etnoslar orasida individual erkinlik, vaqtga nisbatan intizom va shaxsiy tashabbusning qadrlanishini ko'rsatadi.

e) professional identitet va ijtimoiy maqom:

DSc, MD, CEO, CFO – bu qisqartmalar kasbiy maqom va ilmiy darajani bildiradi.

Har bir kasb yoki daraja bilan bog'liq qisqartma shu jamiyatda hurmat, obro', bilim tushunchalarining qanday qadrlanishini anglatadi.

3. Etnomadaniy tafakkur va global qisqartmalar:

Garchi ba'zi qisqartmalar global ko'rinishga ega bo'lsa-da, ular yaratilgan etnos madaniyati asosida tushuniladi:

NASA – AQShda ilm-fan va texnologiyaga berilgan ahamiyat.

NBA – sport (basketbol) orqali milliy g‘urur ifodasi.

LGBTQ – inson huquqlari va ijtimoiy inklyuzivlik masalalari.

Har bir qisqartma orqasida muayyan millatning madaniy g‘oyasi, qadriyatlar tizimi va tarixiy rivojlanishi mavjud.

XULOSA

Qisqartmalar tilning nafaqat sintaktik va semantik jihatlarini, balki madaniy yukini ham o‘zida mujassam etgan. Soha qisqartmalari insoniyat tafakkuri, kasbiy tizimlar, texnologik taraqqiyot va madaniy qadriyatlarning ifoda vositasi sifatida lingvomadaniyatning muhim komponentidir. Ularni o‘rganish orqali nafaqat tilni, balki shu til egalarining dunyoqarashi, qadriyatlari va jamiyat strukturasi haqida chuqurroq tushuncha hosil qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Darvishov I. Etnolingvistika. O‘quv qo‘llanma. – Namangan: Iste’dod ziyo press, 2023. – 99 b.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Советская энциклопедия, 1966. – 606 с.
3. Аширов А., Ш.Атаджанов. Этнология (ўқув қўлланма). – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий Давлат кутубхонаси, 2007. – 124 б.
4. Ботирбекова Г.А., Шарипова С.Б.Тилшуносликда этнолингвистика ва лингвокультурология. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 03 Issue:12 |Dec – 2023. SSN: 2181-2608. – P. 18.
5. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Академия, 2001. – 169 с.
6. Омонбоева Д.Н., Мирзаева Д.И. Ўзбек тилшунослигида этнографик характердаги халқ оғзаки ижоди намуналарининг ўрганилиши. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. Volume 3 Issue 2, February 2023 ISSN 2181-2020. – P. 63.

7. Солижонов М.З. Инглиз ва ўзбек тилларидаги ривоятлар концептуал майдонининглингвокультурологик тадқиқи: Филол. фан. фалсафа док. (PhD)... дисс.автореф. – Тошкент, 2021. – 56 б.
8. Трубецкой Н.С. Поведения и мышления к языку. в кн.: НЛ. в.1.– М., 1960. – 819 с.
9. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – 144 б.

REFERENCES

1. Darvishov I. (2023). Ethnolinguistics. Study Guide. Namangan: Iste'dodzo Press.
2. Akhmanova O.S. (1966). Dictionary of linguistic terms. Moscow: Soviet Encyclopedia.
3. Ashirov A., Atadzhanov Sh. (2007). Ethnology (Textbook). Tashkent: Alisher Navoi National State Library of Uzbekistan.
4. Begmatov E.A., Mamatov A.E. (1998). Theory of Literary Norm (Types of Literary Norm). Part II. Tashkent: Navröz.
5. Botirbekova G.A., Sharipova S.B. (2023). Ethnolinguistics and Linguoculturology in Linguistics. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 03 Issue:12. SSN: 2181-2608. P-18.
6. Omonboyeva D.N., Mirzayeva D.I. (2023). Study of examples of folklore of an ethnographic nature in Uzbek linguistics. Eurasian journal of academic research. Volume 3 Issue 2, ISSN 2181-2020. P-63.
7. Solijonov M.Z. (2021). Linguocultural study of the conceptual field of legends in English and Uzbek: Doctor of Philological Sciences. (PhD)... dissertation abstract.
8. Trubetskoy N.S. (1960). Behavior and Thinking towards Language. in kn.: NL. v.1. M.
9. Hojiyev A. (1985). Explanatory Dictionary of Linguistic Terms. Tashkent: Teacher.